

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligining
2024- yil 29- apreldagi
64-son buyrug'iga
ILOVA

**Kichik korxona va mikrofirmalar tanlanma kuzatuvini
tashkil etish va o'tkazish bo'yicha
Uslubiy nizom**

“Kichik korxona va mikrofirmalar tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha Uslubiy nizom” (keying o'rinlarda—Uslubiy nizom), ko'rib chiqilayotgan davrda kichik biznesning respublika iqtisodiyoti rivojidagi ulushini baholash va asosiy ko'rsatkichlarni hisoblash uchun reprezentativ ma'lumotlar olish maqsadida, kichik korxona va mikrofirmalar (kichik biznes subyektlari) tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish mexanizmlarini belgilaydi.

Uslubiy nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keying o'rinlarda-GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Kichik korxona va mikrofirmalar tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish uslubiyati Yevropa Ittifoqi Statistika byurosi tomonidan ishlab chiqilgan korxonalar statistik kuzatuvlarini rejalashtirish va o'tkazish bo'yicha qo'llanmaning asosiy qoidalari, prinsiplari va tavsiyalariga asoslangan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Uslubiy nizom GSBPMning yig'ish bosqichi doirasida tanlanmani shakllantirish, kuzatuvni tashkil etish, kuzatuvni amalga oshirish, kuzatuvni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

2. Kichik biznes subyektlarining tanlanma kuzatuvini (keyingi o'rinlarda tanlanma kuzatuv) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014- yil 7- apreldagi “O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashgirishtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-4609-son farmoni ijrosini ta'minlash, ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirish va tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun hisobotlar tizimi hamda ularni taqdim etish tartibini tubdan takomillashtirish hisobiga yanada qulay

shart-sharoitlar yaratish maqsadida joriy qilingan.

3. Tanlanma kuzatuvni tashkil etish va o'tkazish, joriy yil uchun statistika dasturi va statistika ishlarini ishlab chiqish dasturida belgilangan muddatlarda, respublika va hududlar miqyosida amalga oshiriladi.

4. Tanlanma kuzatuv quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a) tanlov asosini shakllantirish;
- b) tanlovni rejalashtirish;
- c) tanlov jamlanmasini shakllantirish;
- d) axborotlarni yig'ish va birlamchi qayta ishlash;
- e) tanlanma kuzatuv yakunlarini shakllantirish.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi 275-son qarori bilan tasdiqlangan Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikatsiyasiga muvofiq, belgilangan yillik o'rtacha ishlovchilar soni hamda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) toifasiga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar kuzatuv obyekti hisoblanadi.

6. 4 kb kuzatuv "Kichik korxona va mikrofirmaning faoliyati to'g'risida so'rovnoma" shakli tanlanma kuzatuv har chorakda O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida o'tkaziladi.

7. Tanlanma kuzatuvda ishtirok etish ixtiyoriy hisoblanadi.

8. Tanlanma kuzatuv natijasida olingan ma'lumotlar asosida, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri kesimida, iqtisodiy faoliyatning yiriklashtirilgan turlari bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatini baholash va narx ko'rsatkichlari shakllantiriladi:

- a) umumiy iqtisodiy muhit va biznesga bo'lgan ishonchni baholash;
- b) xodimlar soni va mehnat haqi;
- c) asosiy kapitalga investitsiyalar;
- d) faoliyat turlari bo'yicha qiymat ko'rinishida ishlab chiqarilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar hajmi.

9. Kuzatuv natijalarini qayta ishlash va ularni bosh jamlanmaga tarqatish hududlar darajasida, savolnomalar ma'lumotlarini kiritish va qayta ishlash bo'yicha dasturiy kompleksdan foydalangan holda amalga oshiriladi.

2-bob. Tanlov asosini shakllantirish

10. Kichik korxonalar va mikrofirmalar tanlovi asosini shakllantirish Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (keyingi o'rinlarda – KTYADR) hamda 1 kb (yillik) "Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti" statistika hisoboti ma'lumotlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

11. Har yili:

a) tanlanma kuzatuv yilining 1- mart holatiga bo‘lgan KTYADRdan o‘tgan yilning 1- oktabrigacha tashkil etilgan, mazkur Uslubiy nizomning 4-bandida belgilangan mezonlarga mos keluvchi barcha faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar jamlanmasi hamda o‘tgan yilning oktabr-dekabr oylarida va tanlanma kuzatuv yilining yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar jamlanmasi;

b) tanlanma kuzatuv yilning 1- iyun, 1- sentabr, 1- oktabr holatiga bo‘lgan KTYADRdan o‘tgan yilning oktabr-dekabr oylarida va tanlanma kuzatuv yilida 1- oktabrgacha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar jamlanmasi tanlab olinadi.

Tanlov quyidagi asosiy rekvizitlarni o‘z ichiga oladi:

a) soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (STIR);

b) korxona, tashkilotning asosiy kodi (KTUT)

c) yuridik shaxsning nomi.

statistik kodlar:

d) iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi (IFUT) (2 tahrir)ga muvofiq IFUT kodi

e) ma’muriy-hududiy tuzilmalarni (obyektlarni) belgilash tizimi idoraviy statistik tasniflagichi – MHTBT kodi

12. KTYADR bazasi asosida shakllantirilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ma’lumotlar bazasiga 1 kb (yillik) “Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti” statistika hisobotidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan sof tushum ko‘rsatkichi qo‘shiladi.

13. Elektron ma’lumotlar bazasi shaklida rasmiylashtirilgan va mazkur Uslubiy nizomning 10-11-bandlarida belgilangan rekvizitlar hamda belgilarni o‘z ichiga olgan kichik korxonalar va mikrofirmalar ro‘yxati kuzatuv asosini shakllantirishning yakuniy natijasi hisoblanadi.

14. Reprezentativ ma’lumotlarni olish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining (keyingi o‘rinlarda-Statistika agentligi) so‘roviga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar bilan olingan tanlov asosi o‘zaro solishtiriladi.

15. KTYADR bazasi asosida shakllantirilgan tanlov asosi, kuzatiladigan birliklarni avtomatik ravishda tanlab olish uchun foydalaniladi.

3- bob. Tanlovni rejalashtirish

16. Tanlov rejasi bu – tanlovning bosh jamlanmasi va birliklarini, shuningdek, maqbul tanlovning ehtimoliy bosqichlarini belgilab beruvchi tasniflashlar to‘plamidir.

Tanlovning tanlash sxemasi tanlangan rejaga muvofiq, tanlovning mexanik tanlash usulini bayon etadi.

Tanlovning tanlash sxemasi jamlanmaga muhim ta’sir ko‘rsatadi, shuning uchun u shunday tarzda shakllantirilgan bo‘lishi kerakki, tanlab olinadigan jamlanma ishonchli bo‘lishi hamda kichik korxonalar va mikrofirmalarning umumiy jamlanmasini tavsiflab bera olishi lozim.

17. Tanlab olinadigan jamlanmani shakllantirish ko‘p o‘lchamli tabaqalashgan tasodifiy tanlov usuli orqali amalga oshiriladi, bu xarajatlarni oshirmagan holda tanlov aniqligining oshishini ta’minlaydi.

Bunda, tanlov asosi bir-birini inkor etadigan va bir-birini to‘ldiradigan kichik guruhlar (stratalarga) bo‘linadiki, toki har bir jamlanma birligi faqat bitta kichik guruhga tegishli bo‘lishi va birorta ham birlik tushirib qoldirilmasligi kerak.

Stratalar orqali tanlash, hisoblashlarda maxsus dasturiy ta’minot bazasida tasodifiy raqamlar generatori yordamida shakllantirilgan tasodifiy raqamlardan foydalanishga asoslangan.

18. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlov asosini stratalarga tabaqalashtirish respublika miqyosida to‘rt bosqichda amalga oshiriladi.

19. Birinchi bosqichda quyidagi ikkita ro‘yxat shakllantiriladi:

a) “tushum” ko‘rsatkichi nol bo‘lmagan kichik korxonalar va mikrofirmalar (A jamlanma);

b) o‘tgan yilning oktabr-dekabr oylarida va kuzatuv yilida 1- oktabrgacha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, mos ravishda, 1- iyun, 1- sentabr va 1- oktabrdagi choraklik kuzatuvlari bo‘yicha (B jamlanma).

20. Ikkinchi bosqichda “A” jamlanma 14 ta strata (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri)ga ajratiladi va proporsional taqsimot yo‘li bilan har bir strata kengaytirilgan faoliyat turi bo‘yicha guruhlanadi.

21. Uchinchi bosqichda “A” jamlanma qo‘shimcha ravishda “tushum” belgisi bo‘yicha tabaqalashtiriladi:

a) A_1 strata – tushum hajmi tegishli faoliyat turi uchun “tushum hajmi” belgisining o‘rtacha arifmetik qiymatidan kichik bo‘lsa;

b) A_2 strata – tushum hajmi tegishli faoliyat turi uchun “tushum hajmi” belgisining o‘rtacha arifmetik qiymatidan katta yoki unga teng bo‘lsa.

“A” jamlanmani tabaqalashtirish namunasi 1-ilovada keltirilgan.

22. To‘rtinchi bosqichda “B” jamlanmadan 14 ta hududning har biri uchun tegishli hududda tanlanma kuzatuv yilida tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ro‘yxati shakllantiriladi. Tanlov oddiy tasodifiy tanlab olish usuli bilan amalga oshiriladi.

23. Har bir strata bo‘yicha tanlanma kuzatuvga tushgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning umumiy soni (tanlov o‘lchami), maxsus dasturiy ta‘minot bazasida tegishli qadam birligidan foydalangan holda aniqlanadi. Jami yil davomida kuzatuv uchun tanlangan birliklarning soni “A” jamlanmaning 40-45 foizi va “B” jamlanmaning 10 foizidan oshmasligi lozim.

24. 2-ilovaga muvofiq shakllantirilgan tanlov va tarqatish sxemasi tanlovning mazkur uslubiy nizomning 18-22-bandlarida ko‘rsatilgan ketma-ketlikdagi tuzilishining natijasi hisoblanadi.

4- bob. Tanlov jamlanmasini shakllantirish

25. “A” jamlanma asosida kichik korxonalar va mikrofirmalarni tanlash yilda ikki marta amalga oshiriladi. I chorakda kuzatuv o‘tkazish uchun tanlab olinadigan jamlanmani shakllantirishda kichik tadbirkorlik subyektlarining oxirgi hisobot yili uchun yillik statistika hisobotining dastlabki (joriy) elektron baza ma’lumotlaridan foydalaniladi. **II, III va IV** choraklar uchun tanlanma kuzatuv natijalari sifatli bo‘lishi uchun, KTYADRda korxonalarning faoliyat turi va toifasi bo‘yicha o‘tkazilgan aktualizatsiya natijalarini hisobga olgan holda 1 kb (yillik) “Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti” shakli statistika hisoboti asosida aniqlashtirilgan elektron ma’lumotlar bazasidan foydalaniladi.

26. “A” jamlanma asosida shakllantirilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar ro‘yxatiga “B” jamlanmadan tanlangan korxonalar qo‘shiladi.

27. Tanlanma kuzatuvda ishtirok etuvchi kichik korxonalar va mikrofirmalar har chorakda to‘liq yangisiga almashtiriladi (100 foiz choraklik rotatsiya).

Tanlanma kuzatuvni o‘tkazish, tanlab olingan birliklarning KTYADR bazasi asosida so‘rov vaqtidagi faollik holatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

28. Kuzatiladigan kichik korxonalar va mikrofirmalarning elektron shakldagi ro‘yxati ko‘rinishidagi tanlov natijalari, Statistika agentligining tomonidan har chorakda kuzatuv davri oxirgi oyining 20-sanasigacha hududiy statistika boshqarmalariga yuboriladi hamda Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida joylashtiriladi.

5- bob. Axborotlarni yig'ish va birlamchi qayta ishlash

29. Hududiy statistika organlari savolnomalarni, elektron ro'yxatga kiritilgan barcha kichik korxonalar va mikrofirmalarga, ularni taqdim etish muddatlarini ko'rsatgan holda yetkazadilar, ularni to'ldirish bo'yicha tushuntirishlar beradilar, to'ldirilgan savolnomalarni qabul qilib olishni ta'minlaydilar.

30. Kichik korxonalar va mikrofirmalardan savolnomalarni qabul qilishda uni to'g'ri va to'liq to'ldirilganligiga e'tibor qaratish zarur. Olingan natija shunga bog'liq bo'ladi, chunki natijalarni bosh jamlanmaga tarqatishda har bir xatolik bir necha marta ko'payib ketadi.

31. Kuzatilayotgan subyektlar savolnomalarni elektron shaklda Internet tarmog'i orqali "eStat 4.0" statistik hisobotlarni elektron shaklda yig'ish tizimidan foydalangan holda taqdim etish imkoniyatiga egadirlar. Zarur ma'lumotlar Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida joylashtirilgan.

Savolnomalar qog'oz shaklida taqdim etilganda, birlamchi ma'lumotlarni kiritish maxsus dasturiy ta'minotdan foydalangan holda, tuman (shahar) statistika bo'limlari xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

32. Savolnomalarga javob bermagan subyektlar foizining ko'pligi kuzatuv natijalarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini va oqibatda ma'lumotlarning buzilishiga olib kelishini hisobga olgan holda, hududiy statistika organlari javoblar foizini maksimal darajada yuqori bo'lishini ta'minlashlari zarur.

Tanlovga tushgan kichik korxonalar va mikrofirmalar so'rovnomalarni taqdim etmasa yoki topilmasa, hududiy statistika organlari tomonidan ularni boshqalariga almashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

6- bob. Tanlanma kuzatuv yakunlarini shakllantirish

33. Tanlanma kuzatuv natijalari olingandan keyin, nazorat qilish, tahlil etish va tuzatish ishlari bajarilgandan so'ng, birlamchi ma'lumotlar bazasi va hisobot beruvchi korxonalar ro'yxati shakllantiriladi.

34. Tanlanma ravishda olingan ma'lumotlar kichik korxonalar va mikrofirmalarning tegishli bosh jamlanmasiga tarqatiladi.

Tanlov tavsifini jamlanmaga tarqatish bu – birinchi o'rinda asosiy ahamiyat kasb etuvchi qo'shish ehtimolligi, ya'ni ehtimollik shundaki, aynan ushbu element tanlovga kiritiladigan jarayondir.

Teskari kiritish ehtimolligining kattaligi, fk elementini *qo'shish salmog'i* deb aytiladi.

Tanlovni boshlashdan oldin jamlanma stratalarga ajratilganda va tasodifiy tanlov prinsipi bo'yicha stratadan tanlov amalga oshirilgan hollarda h stratadagi elementlar uchun qo'shish salmog'i quyidagiga teng bo'ladi:

$$f_k = N_h / n_h,$$

bunda, N_h - h stratadagi jamlanma soni,

p_h - h stratadagi tanlov soni.

Tanlov tavsifini bosh jamlanmaga tarqatish bo'yicha shartli namuna 3-ilovada keltirilgan.

35. Hisobot yili boshidan ma'lum davr uchun ma'lumotlarni hisoblashda, tegishli choraklarning natijalari jamlanadi.

Choraklar bo'yicha tanlanma kuzatuv natijalarini jamlashning shartli namunasi 4-ilovada keltirilgan.

7-bob. Yakuniy qoidalar

36. Uslubiy nizom tanlanma statistika kuzatuvini tashkil etish va o'tkazishning asosiy bosqichlariga mos bo'lgan ketma-ketlikda ifodalangan hamda statistika organlari tomonidan o'rganilgan kichik biznes subyektlari jamlanmasi to'g'risida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini beruvchi ishonchli statistika ma'lumotlarini, bunda olingan natijalarning aniqligini nazorat qilgan holda, shakllantirish maqsadida foydalanishlari uchun mo'ljallangan.

37. Kichik korxonalar va mikrofirmalar choraklik tanlanma kuzatuvining natijalari, iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirishda foydalaniladi hamda har chorakda bandlik, investitsion faollik va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash uchun qo'llaniladi.

38. Mazkur Uslubiy nizomning 35-bandida ko'rsatilgan kichik biznes bo'yicha choraklik indikatorlarni shakllantirishda baholashlarning aniqligini oshirish uchun, Statistika agentligining tegishli tarkibiy bo'linmalari tomonidan so'rovnomalardagi iqtisodiy vaziyatni baholovchi "yaxshilanish" yoki "yomonlashish" ko'rsatkichlari asosida hisoblangan tuzatuvchi koeffitsiyentlar ham qo'llanilishi mumkin.

39. Mazkur Uslubiy nizom ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Kichik korxona va mikrofirmalar
tanlanma kuzatuvini tashkil etish
va o'tkazish bo'yicha Uslubiy nizomga
1-ilova

**“Tushum” ko‘rsatkichi nolga teng bo‘lmagan kichik
korxonalar va mikrofirmalar jamlanmasini hisoblash namunasi
(har bir hudud bo‘yicha)**

1- jadval

Iqtisodiy faoliyat turi (IFUT-2)	Tushum o‘rtacha arifmetik qiymati belgisi “tushum”dan kichik (A_1 strata)
A	
B-D	
Ye	
F	
G	
N	
I-S	

2- jadval

Iqtisodiy faoliyat turi (IFUT-2)	Tushum o‘rtacha arifmetik qiymati belgisi “tushum”dan katta yoki teng (A_2 strata)
A	
B-D	
Ye	
F	
G	
N	
I-S	

Kichik korxona va mikrofirmalar
tanlanma kuzatuvini tashkil etish
va o'tkazish bo'yicha Uslubiy nizomga
2-ilova

Tanlov sxemasi va tanlov natijalarini tarqatish

Shartli namuna

Strata	N_h jamlanma	n_h tanlov	f_k qo'shish salmog'i
A	280	27	10,37
B-D	844	58	14,552
Ye	247	49	5,041
F	135	54	2,5
G	105	80	1,313
N	60	50	1,2
I-S	97	81	1,198
Jami	1768	399	-

Kichik korxona va mikrofirmalar
tanlanma kuzatuvini tashkil etish
va o'tkazish bo'yicha Uslubiy nizomga
3-ilova

Tanlov tavsifini bosh jamlanmaga tarqatish namunasi

Shartli namuna

	A strata
Jamlanma (N_h)	10 000
Tanlov (n_h)	4 000
Kiritish ehtimolligi	0,4
Qo'shish salmo g'i (f_k)	2,5
Tushum summasi (mln. so'm)	500 000,0

A jamlanmaning jami tushumi = $2,5 \cdot 500\,000,0 = 1\,250\,000,0$ mln. so'm

Kichik korxona va mikrofirmalar
tanlanma kuzatuvini tashkil etish
va o'tkazish bo'yicha Uslubiy nizomga
4-ilova

Choraklar bo'yicha kuzatuv natijalarini jamlash namunasi

Shartli namuna

mlrd. so'm hisobida

Kuzatuv davri	Natijalar
yanvar-mart uchun	300
yanvar-mart uchun	300
aprel-iyun uchun	400
yanvar-iyun uchun	300+400=700
iyul-sentabr uchun	450
yanvar-sentabr uchun	700+450=1150
oktabr-dekabr uchun	500
yanvar-dekabr uchun	1150+500=1650